

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI MOSLASHISH DAVRDA BOLALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH

**Usmonova Dilyona Dilshodjon qizi**

**Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti**

**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi**

**Udilyona@gmail.com**

**Ustoz: Gulnoza Sanginova Baxodirovna**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20321694>

**Annontatsiya:** Tezida maktabgacha yoshdagi bolalarning ilk ijtimoiy muloqot va jamiyatga ko'nikish davrida psixologik va pedagogik yondashuvlarni tahlil qilamiz. Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilot sharoitiga muvaffaqiyatli moslashishini nafaqat tashqi, balki rivojlantiruvchi muhit — pedagogik mahorat, tengdoshlar bilan kommunikatsiya hamda oilaviy mikromuhitning uyg'unligi sifatida ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, jamiyatga moslashuv, rivojlantiruvchi muhit, Ijtimoiy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqarish, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi, bola rivojlanishi, oila va jamiyat hamkorligi, qollab-quvvatlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining qabul qilgan bir qator qarorlarida bolalarni maktabgacha ta'limga bosqichma-bosqich jalb qilish, ularni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, moslashuv jarayonini yengillashtirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Jumladan, 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-4477-sonli qaror va 2021-yil 16-martdagi PQ- 5032-sonli qarorlarda bu borada amaliy chora-tadbirlar ko'rsatilgan. Ularning ijrosi natijasida maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning moslashuv davrini tizimli ravishda tashkil qilish va ularning farovonligini ta'minlash imkoniyatlari kengaymoqda.

Shunday ekan, bolalarning moslashuv davrini o'rganish va uni ilmiy asosda tashkil etish nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshiradi, balki har bir bola uchun qulay ijtimoiy muhit yaratishga xizmat qiladi.

Bolalar Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga berishning boshlanishi bolalarda yangi ijtimoiy muhitga moslashishini, kattalar va tengdoshlar aloqalarni o'rnatishni hatti xarakterlarning moslashuvchanligi va moslashuvchan mexanizmlarni rivojlanishini talab etadi. Kundalik tartib, talab va majburiyatlar bola uchun kutulmagan holga aylanib qoladi va shu bilan birga uni stresli holatga keltiradi. Bazi bolalar uchun qiyin sharti bu guruh xonasini katta maydoni jihozlari va odatdagi uy sharoitlari sezilarli darajada farq qiladi. Bunday holatda bolani hafsizlik tuyg'usidan mahrum qilmaslik uchun uni kattalarga yaqinroq, cheklanganroq joyga qo'yish yaxshiroq. Bu shuningdek pedagog moslashish davrida bolalarni kattalar bilan hissiy aloqada bo'lgan o'ta keskin extiyojlarni qondirishga dastlabki tayyorgarlikning yetishmasligi nevrologik reaksiyalarni olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy moslashuv bolaning tengdoshlar guruhiga kirishish, jamiyatda mavjud bo'lgan meyyorlar xulq atvor qoidlari qabul qilish yashash sharoitlariga moslashish bunda o'zini anglash va ro'li hattai harakatlar o'zini o'zi boshqari qobilyati o'z o'ziga xizmat qilish boshqalar bn adekvat munosabatlar shakillanadi.

Moslashuv – bu bolaning yangi muhitga, jamoaga, yangi tartib va pedagogik talablar tizimiga moslashish jarayonidir. Ilmiy adabiyotlarda moslashuv jarayoni uch asosiy bosqichda kechishi ko'rsatilgan:

1. Ilk bosqich (reaksiya bosqichi): bola o'ziga notanish muhitda begonalik his qiladi, yig'lash, tortinchoqlik, kayfiyat o'zgarishlari kuzatiladi.

2. O'rganish bosqichi: bola yangi muhitga asta-sekin ko'nikadi, kun tartibiga moslashishni boshlaydi.

3. Barqaror bosqich: bola o'zini erkin tuta boshlaydi, jamoa a'zosi sifatida harakat qiladi, faol ishtirok etadi.

Moslashuv davrining ahamiyati shundaki, bu jarayon muvaffaqiyatli kechgan taqdirda, bola o'zini xavfsiz his qiladi, yangi muhitda erkin harakat qiladi va ijtimoiylashuv jarayoniga faol qo'shiladi. Aksincha, moslashuvda muammolar kuzatilsa, bu bolaning kelajakdagi o'qish va rivojlanish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [1].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ilk bor qadam qo'ygan bolalar uchun moslashuv davri – yangi ijtimoiy muhitga ko'nikish jarayonidir. Bu davrda bola avvalgi yashash va tarbiyalanish sharoitidan farqli bo'lgan yangi tartib-qoidalarga, jamoa hayotiga va pedagoglar bilan muloqotga moslashadi. Mazkur davr bolaning psixologik, ijtimoiy va emotsional rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashish jarayoni, ularning psixologik va ijtimoiy rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biridir. Bolalar bu davrda atrofdagi dunyo, oilaviy va ijtimoiy aloqalar, shuningdek, madaniy qadriyatlar bilan tanishadi. Shu nuqtai nazardan, rivojlantiruvchi muhitning ta'lim jarayonidagi o'rni katta ahamiyatga ega. Bu bosqichda ota-ona va tarbiyachining qo'llab quvvatlashi bolani o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va tengdoshlari bilan muloqotga kirishishga yanada yordam beradi.

Bundan tashqari ota-onalar va pedagoglar bolalar uchun rivojlantiruvchi muhit yaratishda birgalikda ishlashlari zarur. Ota-onalar bolalarining maktabgacha ta'lim muassasasiga o'rganish jarayonini qo'llab-quvvatlashi, ularga ijtimoiy muhitda to'g'ri moslashishlariga yordam berishi kerak. Pedagoglar esa bolalar bilan har kuni muloqot qilib, ularning jamiyatga nisbatan bo'lgan munosabatlarini yaxshilashda, ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini rivojlantirishda faol ishtirok etishlari lozim

Ota-onalar bolalari bilan har kuni suhbatlashishlari va ularning yutuqlari, harakatlari, mashg'ulotlarini muhokama qilishlari kerak bo'ladi. Ota-onalar o'z farzandlari bilan suhbat davomida bolaning faqat nima qilgani emas, balki nimalarni his qilgani bilan ham qiziqishlari kerak "Bugun do'sting bilan o'yinchoq talashganingda o'zingni qanday his qilding?" kabi savollar bolaga o'z tuyg'ularini tushunishga va ularni boshqarishga yordam beradi. Bu kelajakda uning stressga chidamliligini oshiradi.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida kunlarini deyarli 70% o'tkazishadi va bu vaqtda ular o'zlarining sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari maqsadga muvofiq. Bunda Korea texnologiyalari asosida mashg'ulotlarni yo'lga qo'ysak ham bo'ladi. Bunda tarbiyachi ota-onalar bilan hamkorlikda ularning kundavomidagi mashg'ulotlarini markazlarda belgilashlari mumkin bo'ladi.

Bola rivojlanishida maktabgacha ta'lim va tengdoshlarining o'rni bu avvalo, jismoniy muhit, ta'lim muhitining sifati, emotsional va ijtimoiy muhitni o'z ichiga oladi. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida jamiyatning qoidalari, odatlari va madaniy qiymatlari bilan tanishadilar. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi bolalarning jamiyatga integratsiyasiga, o'z-o'zini anglashiga va ijtimoiy fazilatlarining shakllantiradi.

Mening taklifim bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarda moslashuv davrini boshqarish uchun maxsus “Moslashuv xonasi” yoki “Hissiyotlar burchagi”ni tashkil etish kerak. Chunki men

amaliyot davomida ko'rdimki bir bola endi maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelishni boshladi va ertalabdan yig'lab keladi va eshik oldida o'tirganch hech qayerga bormaydi. Mashg'ulot o'tayotganida mashg'ulotga qiziqib keladida va mashg'ulot tugagach yana borib joyiga o'tirvoladi bunday bolalar uchun maxsus moslashuv honalari va tarbiyachi birlashtirilsa bu uni moslashish jarayonini yanada tezlashtirgan bo'lardi deb o'ylayman. Bu burchakda bola stress holatida o'zi yolg'iz qolib, tinchlanishi yoki tarbiyachi bilan yakka tartibda suhbatlashishi mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning moslashuv davri – bu ularning yangi ijtimoiy muhitga, yangi tartib-qoidalarga va pedagoglar bilan o'zaro munosabatlarga moslashish davridir. Bu davr tarbiyalanuvchining psixologik, emotsional va intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur davrda bolaning o'zini erkin his qilishi, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashi va yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashishi uchun pedagoglar, otalar va psixologlar o'rtasidagi hamkorlik nihoyatda muhimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi moslashuv davri – bolaning kelajakdagi ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanishining poydevorini tashkil etadi. Bu jarayonning samarali tashkil etilishi nafaqat bolaning ta'lim muhitiga ko'nikishini, balki uning shaxsiy barkamolligini ham belgilab beradi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4477-sonli qarori. – T.: Adliya vazirligi, 2019. – 12 b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-martdagi “Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5032-sonli qarori. – T.: Adliya vazirligi, 2021. – 10 b.
3. Toxirovna, K. F. (2024). O 'Qituvchilik Faoliyatida Deontologik Tayyorgarlikni Oshirish.
4. Miasto Przyszłości, 51, 146-148.
5. Kalandarova F.T. KOMPETENTSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSI SIFATIDA. <https://www.iupr.ru/5-120-2024>  
Kalandarova, F. (2024). O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMMUNIKATIV QOBILYATLARINI.